



III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3 705,3 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 103,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3 578,7 mlrd. so‘mni (103,2 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd. so‘mni (104,4 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 45,5 mlrd. so‘mni (102,2 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 81,0 mlrd. so‘mni (122,1 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd so‘m)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning o‘shish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘shish sur‘ati Bog‘ot (107,4 foiz), Xonqa (107,4 foiz) va Yangibozor (107,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Xiva shaharida (100,3 foiz), Qo‘shko‘pir (101,0 foiz) va Yangiariq (101,0 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Qo‘shko‘pir tumanida - 11,4 foiz, Urganch tumanida - 11,1 foiz, Xonqa tumanida - 10,1 foiz, Xiva tumanida - 10,0 foiz, Gurlan tumanida - 9,9 foiz, Bog‘ot tumanida - 9,0 foiz, Shovot tumanida - 9,0 foizni tashkil etdi. Xiva shahri - 0,5 foiz, Tuproqqal’a tumani - 2,4 foiz va Urganch shahri - 3,8 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,5 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2024-yilning yanvar-mart oylarida 3 527,9 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘shishi 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 111,5 foizni va chorvachilik mahsulotlari 102,8 foizni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2024-yil yanvar-mart oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 88,0 foizini (2023-yil yanvar-mart oylarida – 87,9 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 5,9 foizi ishlab chiqarilgan (2023-yil yanvar-mart oylarida 5,3 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 6,1 foizi (2023-yil yanvar-mart oylarida – 6,8 foiz) ishlab chiqarilgan.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilikning ulushi**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




2024-yilning yanvar-mart oylarida 3 527,9 mlrd. soʻmga teng boʻlgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 170,9 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 4,8 foizi dehqonchilik, 3 357,0 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 95,2 foizi chorvachilik sohasiga toʻgʻri keladi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bogʻot tumani (13,7 foiz), Yangiariq tumani (10,2 foiz) va Tuproqqalʼa tumanida (7,1 foiz) yuqori koʻrsatkich qayd etildi. Urganch shahrida dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilmagan, Xiva shahrida bu koʻrsatkich 1,9 foiz boʻlib, dehqonchilik mahsulotlari salmogʻining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori koʻrsatkichlari Urganch shahrida (100,0 foiz), Xiva shahrida (98,1 foizi), Xiva tumanida (97,9 foiz) qayd etildi.

Qishloq xoʻjalik mahsulotlarining hududlar hamda xoʻjalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti ulushining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori koʻrsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xoʻjaliklarining hissasiga toʻgʻri kelishi kuzatildi. 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, fermer xoʻjaliklarining qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Yangibozor tumanida (14,4 foizi), dehqon va tomorqa


xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,9 foizi) va Xiva shahrida (96,7 foizi), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (23,9 foizi) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Yangiariq tumanida (3,7 foizi), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (70,9 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,1 foizi) va Hazorasp tumanida (0,8 foizi) qayd etildi.



Dehqonchilik. 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 170,9 mlrd. so'mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 4,8 foizini tashkil qildi. 2023-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 69,0 mlrd.so'mni (103,8 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 22,8 mlrd.so'mni (104,0 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 79,1 mlrd so'mni (121,4 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hosil yig'imi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5474 tonna sabzavot (118,4 foiz), 14 tonna meva va rezavorlar (4,7 m) yetishtirildi.



Chorvachilik. 2024-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 3357,0 mlrd so'mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 102,8 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 138,6 mlrd so'mni (122,2 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 3083,5 mlrd so'mni (103,0 foiz), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 134,9 mlrd so'mni (85,4 foiz) tashkil qildi.


Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2024-yilning 1-aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 100,9 foizni (jami 967,3 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 100,7 foizni (367,3 ming bosh), qo'y va echkilar 102,4 foizni (501,5 ming bosh), otlar 100,5 foizni (5,8 ming bosh), parrandalar 105,2 foizni (6890,6 ming bosh) tashkil qildi.


Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo'jaliklar toifalarining ulushi

2024- yilning 1-aprel holatiga



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 90,9 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,2 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 80,3 foizni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-mart oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jaliklar toifalarining ulushi



2024-yil 1-aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o‘shir sur‘ati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	967,3	100,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	74,5	103,8
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida	878,1	100,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	14,7	113,0
ulardan: sigirlar	367,3	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	31,3	106,8
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida	330,3	99,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,7	118,2
Qo‘y va echkilar	501,5	102,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	83,0	108,9
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida	386,6	100,3
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	31,9	114,6
Otlar, bosh	5 822	100,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	796	105,2
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida	4 957	99,5
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	69	123,2
Parrandalar	6 890,6	105,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	1 085,7	113,1
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida	3 931,9	99,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1873,0	113,8

**2024-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	43,7	102,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	1,1	124,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	38,6	102,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,0	101,6
Sut, ming tonna	215,5	101,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	12,8	126,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	201,1	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,6	116,4
Tuxum, mln dona	98,2	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	10,0	102,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	68,8	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	19,4	104,8
Jun, tonna	98	125,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	30	176,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	62	105,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	6	3,0 m.
Qorako'l teri, dona	1704	103,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	83	156,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1580	101,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	41	136,7

2024-yilning yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 207,6 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning tegishli davriga nisbatan 115,1 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 5,9 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2024-yilning 1-aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 74,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 31,3 ming bosh sigir, 83,0 ming bosh qo‘y va echki, 796 bosh ot, 1085,7 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2023-yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 103,8 foizni, shu jumladan, sigirlar 106,8 foizni, qo‘y va echkilar 108,9 foizni, otlar 105,2 foizni, parrandalar 113,1 foizni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	<i>yanvar-mart</i>				<i>2023- yanvar-mart oylariga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil</i>		<i>2024- yil</i>		
	<i>tonna</i>	<i>umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	<i>tonna</i>	<i>umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	
Jami don	-	-	-	-	-
Kartoshka	-	-	-	-	-
Sabzavot	141	3,0	171	3,1	121,3
Poliz	-	-	-	-	-
Meva	-	-	-	-	-
Uzum	-	-	-	-	-
Go‘sh, tirik vaznda	918	2,2	1139	2,6	124,1
Sut	10050	4,8	12738	5,9	126,7
Tuxum, <i>ming dona</i>	9732	10,1	10007	10,2	102,8
Jun, <i>tonna</i>	17	21,8	30	30,6	176,5
Qorako‘l, <i>dona</i>	53	3,2	83	4,9	156,6
Asal, <i>tonna</i>	-	-	-	-	-
Baliq, <i>tonna</i>	1754,6	65,7	2133,3	63,0	121,6

2024-yil 1-aprel holatiga hududlar kesimida fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni



Shahar va tumanlar nomi	Fermer xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar
Bog‘ot	368	2	65
Gurlan	436	4	111
Qo‘shko‘pir	425	1	40
Urganch	376	5	76
Hazorasp	391	1	24
Tuproqqal‘a	229	2	33
Xonqa	513	2	96
Xiva	359	4	34
Shovot	572	1	20
Yangiariq	328	4	37
Yangibozor	468	1	36
Urganch sh	-	7	15
Xiva sh	-	1	15
Viloyat, jami	4465	35	602

2024-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
5474



Meva va rezavorlar (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
14





2024-yil 1-aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
967 309




Shu jumladan, sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
367 333




Qo'ylar va echkilar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
501 539




Otlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
5 822



Parrandalar (ming bosh)
6 890,6



Baliq (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
3386,5




2024-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go'sht (ming tonna)
Jami viloyat



bo'yicha 43,7




Sut (ming tonna)




Jami viloyat

bo'yicha 215,5




Tuxum (mln dona)



Jami viloyat


bo'yicha 98,2



Jun (tonna)



Jami viloyat bo'yicha 98,0



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.